

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari .....	444
<b>I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva</b>	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish .....	448
<b>M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva</b>	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi .....	455
<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
<b>O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova</b>	
The structure of speech acts in various types of discourse .....	462
<b>X.M.Sotvaldieva</b>	
Paremiologiya fan sifatida .....	467
<b>A.E.Botirova</b>	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar .....	473
<b>R.Radjabov</b>	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar .....	478
<b>M.N.Raxmanova</b>	
Texnik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari .....	482
<b>U.B.Almaz, O.X.Barziyev</b>	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar .....	486
<b>D.Sh.Islomov</b>	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida .....	493
<b>M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev</b>	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida).....	498
<b>G.A.Saydaliyeva</b>	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
<b>G.N.Isakova</b>	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
<b>J.J.Egamberdiyev</b>	
Lug'at zamon va davr elchisi.....	511
<b>Sh.Sh.Zarmasov</b>	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili .....	515
<b>G.P.Nazarova, F.B.Alimova</b>	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazonalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
<b>S.A.Mannonova</b>	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari.....	526
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context .....	529
<b>A.K.Usmonov</b>	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari .....	533
<b>N.K.Abbasova</b>	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms .....	538
<b>D.G.O'rinboyeva</b>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar .....	542
<b>N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova</b>	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
<b>Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашурова</b>	
Когнитивный подход к анализу художественного текста .....	550



UO'K: 811.11137. 161.

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI AYRIM ANTROPONIMLAR SEMANTIKASI  
MASALALARI****ВОПРОСЫ СЕМАНТИКИ ОТДЕЛЬНЫХ АНТРОПОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ И  
АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****ISSUES OF THE SEMANTICS OF CERTAIN ANTHROPONYMS IN THE UZBEK AND  
ENGLISH LANGUAGES****Iskandarova Sharifa Madaliyevna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori**Komilova Muxtaram Xotamjon qizi<sup>2</sup>** <sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada tilshunoslikda onomastikaning tutgan o'рни, boshqa sohalar bilan aloqasi hamda ushbu birliklar boradasidagi tadqiqotlar tahlili yuzasidan mulohazalar bayon etilgan bo'lib, antroponimlar xalqning tarixi va ma'naviyatini o'zida mujassamlashtirgan leksik birliklar hisoblanib, ularning yuzaga kelishi, rivojlanishi, qo'llanish xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligi borasida so'z yuritiladi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillarida antroponimlarning struktur-semantik tadqiqi hamda ushbu birliklar motivlarining o'ziga xos xususiyatlari misollar yordamida dalillanadi. O'zbek va ingliz lingvistikasining antroponimika yo'nalishlari bo'yicha olib borilgan nazariy ma'lumotlar va ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan tadqiqotchilarning qarashlari o'rganilgan.

**Аннотация**

В данной статье описывается роль ономастики в языкознании, ее связь с другими областями, а также анализ исследований по этим единицам. Сказано, что изучение особенностей образования имеет большое научное значение. Также с помощью примеров доказывается структурно-семантическое изучение антропонимов в узбекском и английском языках и специфика мотивов этих единиц. Изучены теоретические сведения и взгляды исследователей, ведущих научные исследования по направлениям антропонимики узбекского и английского языкознания.

**Abstract**

This article describes the role of onomastics in linguistics, its relationship with other fields, and the analysis of research on these units. It is said that the study of the characteristics of the formation is of great scientific importance. Also, the structural-semantic study of anthroponyms in Uzbek and English languages and the specific features of the motifs of these units are proved with the help of examples. The theoretical information and views of the researchers conducting scientific research on the directions of anthroponymics of Uzbek and English linguistics were studied.

**Kalit so'zlar:** onomastika, antroponimiya, lingvistika, nom, toponim, gidronimika, etnonimika, kosmonimiya, motiv.

**Ключевые слова:** ономастика, антропонимия, лингвистика, имя, топоним, гидронимика, этнонимика, космонимика, мотив.

**Key words:** onomastics, anthroponymy, linguistics, name, toponym, hydronymics, ethnonymics, cosmonymics, motiv.

**KIRISH**

Ismlarda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo'ladi. Ismlar ma'lum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan o'рни haqida ham habar beradi. Insoniyat paydo bo'libdiki, uning ismi ham mavjud. Ismsiz inson yo'q. Ismlar jamiyatda muhim ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Ular qanday shaklda bo'lmasin, kishilarni alohida, individual shaxs, individ sifatida atashga xizmat qiladi. U ommabop yoki kam qo'llanuvchi bo'lishi mumkin. Har bir nom o'z tarixi, "biografiyasi" va "geografiyasi"ga ega. Masalan, arabcha nomlar O'rta Osiyo va boshqa

## TILSHUNOSLIK

mamlakatlarga islom dini bilan birga kirib keldi. Ismlar lingvostilistik jihatdan real yoki to'qima bo'lishi mumkin[3].

Tilshunos olim E.Begmatov to'g'ri ta'kidlaganidek, antroponimlar – onomastikaning eng yirik guruhini tashkil qiluvchi lisoniy birliklar bo'lib, biror tildagi antroponimlar majmui antroponimiya (xuddi toponomiya, zoonomiya kabi) deb yuritiladi[4]. E.Begmatov onomastik birliklarda, jumladan, antroponimlarda antropotsentrik, xususan, lingvokulturologik tahlil uchun material bera oladigan quyidagi xususiyatlar namoyon bo'lishini yozadi:

- 1) antroponimlar shaxslarni farqlash bilan birga, nomlovchining xohishi va faoliyati bilan bog'liq rasm-rusumlarga asoslanadi;
- 2) antroponimlar xalq ijodkorligining samarasi hisoblanadi;
- 3) antroponimlar orqali asrlar davomida yashagan kishilarning etnik, madaniy-ma'naviy qarashlari hamda diniy e'tiqodlari bizga qadar yetib keladi;
- 4) antroponimlar motivatsiyasi millatning tarixiy taraqqiyotiga bog'liq[5,37-38].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Antroponimlar muammosi turli odamlarning madaniyatlararo muloqoti natijasida paydo bo'lgan va ayni paytda katta tarixiy zaminga ega. Antroponimlarning shakllariga ijtimoiy omillar bilan bir qatorda individual omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Antroponimlar turli mamlakatlarda milliy ramz sifatida paydo bo'lgan va bu jihat uning til tizimidagi ahamiyati va rolini ko'rsatadi. Ingliz tilida antroponimlarning shakllanishi uning semantik va fonetik xususiyatlariga bog'liq va o'ziga xos jihatlariga ega. Ingliz tili antroponimlarning faoliyatini chuqurroq tahlil qilish keyingi tadqiqotlar uchun istiqbol bo'lishi mumkin.

Jahon tilshunosligida antroponimiya bilan bog'liq tadqiqotlar orasida ingliz antroponimikasi muammolari ustida ilmiy tadqiqot olib borgan X.Jozef, D.Styuart, O.Yespersen, T.Gobbs, B.Rassel va boshqa olimlarning ilmiy qarashlarini alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Xususan, T.Gobbs antroponimlar semantikasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan bo'lsa, B.Rassel otlar va ko'rsatish olmoshlari orasidagi o'xshash elementlarni aniqlagan. D.Styuart va B.Rassel tadqiqotlarida esa antroponimlar alohida leksik ma'noga ega bo'lmagan birliklar sifatida tavsiflanadi [6,5,7].

O'zbek tilshunosligida esa mustaqil ilmiy sohalaridan bo'lgan nomshunoslikning rivojlanishida E.Begmatov, Z.Do'simov, T.Nafasov, S.Qorayev, N.Husanov, N.Uluqov, T.Enazarov, T.Qorayev, Y.Xo'jamberdiyev, N.Oxunov, L.Karimova, T.Rahmatov, Q.Xurramov, H.Sattorov, X.Xolmo'minov, G'.Saporov, S.Rahimov, I.Xudoynazarov, P.Safarov va boshqalarning tadqiqotlari asos bo'ldi. Xususan, E.Begmatov o'zbek antroponimiyasi, T.Nafasov Qashqadaryo viloyati toponimiyasi, S.Qorayev esa tarixiy nomlarni o'rganishga jiddiy e'tibor qaratgan[4,4].

**NATIJA VA MUHOKAMA**

O'zbek antroponimiyasini zamonaviy ilmiy metodlar asosida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar o'tgan asrning 60-yillarida yuzaga kela boshladi. Unga qadar bolaga ism qo'yishga bag'ishlangan ba'zi ilmiy-ommabop maqolalar nashr etilgan edi. O'tgan davr mobaynida o'zbek antroponimlarining leksik-semantik xususiyatlari, antroponimiyaning nominativ va motivativ asoslari antroponimlarni tadqiq qilishning lisoniy va sotsiologiyistik o'ziga xos muammolari yuzasidan anchagina ishlar amalga oshirildi.

Endilikda o'zbek antroponimiyasini o'rganish bo'yicha boy tajriba to'plandi. Bular antroponimlarni ilmiy tadqiq qilishning ham nazariy, ham amaliy muammolariga oiddir. Shu bilan birga, o'zbek antroponimlarining bir qator nazariy va amaliy muammolari o'zining ilmiy asosi va teran tadqiqini kutmoqda. Masalan, antroponimlar semantikasi va motivatsiyasi, antroponimlarni tasnif qilishning ilmiy tamoyillari, antroponimlarni qardosh va noqardosh tillar bilan qiyosiy o'rganish, antroponimlarni davrlashtirish tamoyillari, o'zbek tarixiy antroponimiyasi, antroponimlarning turli uslublarida, ayniqsa, antroponimiya fondiga ijtimoiy-lisoniy, milliy-madaniy, falsafiy-etnik jihatdan yondashish masalalari, antroponimlarning izohli, imloviy transkripsiya lug'atlarini tuzishning leksikografik talab va tamoyillari, tarixiy yozma obidalar tilidagi antroponimlarni o'rganish, o'zbek ismlarining ma'nolarini ommabop tarzda izohlagan dastlabki risolani Y.Menajiyev va X.Azamatovlar yaratishdi. Risolada ismlar ma'nosini tushunish, ism ma'nosining asosi bo'lgan motivlar va boshqalar yuzasidan jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yilgan[4,15]. Keyinchalik E.Begmatov va D.Abdurahmonovlar qayta izlanishlar natijasida yangi nashrda

ismlarning nominativ vazifasi, ism ma'nosi tushunchasi, ism berishda amal qilinadigan udum va odatlar, e'tiqodlarga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, diniy ma'noli nomlarning bolaga berilish sabablari (*Allohberdi, Tangribardi, Xudoyor, Jumanazar, Ollonazar, Oyatulla*), ism berishda amal qilinuvchi totemistik va animistik e'tiqodlar (*Bo'riboy, Bo'ritosh, Bo'riniso, Boybo'ri, Itolmas*), so'zning (ismning) sehrli kuchiga ishonish bilan bog'liq qarashlar (*Ortiqboy, Yetmishboy, Ziyodulla, Nishonboy, Xolboy, Huriniso, Norboy, Norxol*), zooantroponim va fitoantroponimlarning paydo bo'lish sabablari (*Kuziboy, Norqo'zi, To'qliboy, Sarkaboy, Qo'chqor* va boshqalar), chaqaloqni bevaqt nobud bo'lishdan, kasallikdan himoya qilish maqsadida beriladigan ismlarning etnografik asoslari (*To'xtaxon, O'lmas, Tursun, Ergashali, Temir, Toshboy, Toshtemir, Toshpo'lat* va boshqalar) haqida qimmatli mulohazalar bayon qilingan. Quyidagi fikrni kitob mualliflarining qayd qilingan tahlillariga xulosa sifatida keltirish mumkin: Demak, bolaga nom berish odatlari va kishi nomlarining paydo bo'lishi, rivoji dastlab xalqning iqtisodiy-xo'jalik sharoiti, shunga bog'liq holda ma'naviy turmushi, jumladan diniy va estetik qarashlari, shuningdek, geografik muhiti bilan yaqindan aloqador hodisadir. Kitobda kishi nomlari, ya'ni antroponimlarning ma'nosi yuzasidan ham fikr bildirilgan. Mualliflarning bu masaladagi tahlillari hozirda ism ma'nosini fanda uch xil talqin qilish mavjudligini ko'rsatgan. Bular:

- a) ism uchun asos bo'lgan so'z anglatuvchi lug'aviy ma'no;
- b) ismning tanlanishi va qo'yilishi bilan bog'liq etnografik ma'no;
- v) ismning yakka shaxsning atoqli oti sifatida yuzaga keluvchi yakka, xususiy tushuncha bilan bog'liq ma'nosi.

Keltirilgan ma'nolarning tahlilidan keyin mualliflar shunday xulosaga kelishadi: "Xullas, kishi nomlarining ma'nosi bormi, uni nima tashkil etadi, deyilgan fikr hozirgacha tilshunoslikda ilmiy jihatdan to'la va uzil-kesil hal qilinmagan mulohazali masalalardan biridir"[4,16].

Ma'lumki, antroponimlar xalqning tarixi va ma'naviyatini o'zida mujassamlashtirgan leksik birliklar hisoblanib, ularning yuzaga kelishi, rivojlanishi hamda qo'llanish xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Antroponim bir tomondan shaxs madaniy o'ziga xosligining tarkibiy qismi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ko'p madaniyatli muloqot jarayonida bog'lovchi vazifani bajaradi. Ko'plab antroponimlar ba'zi mamlakatlarda milliy belgilarga aylanib (Jek – amerikaliklar uchun, Taras – ukrainlar uchun, Abay – qozoqlar uchun, Alpomish – o'zbeklar uchun), antroponimik formulada ham milliy jihat ochib beriladi, bu esa ma'lum bir millat, ijtimoiy guruh va e'tiqodga mansub shaxsning nominatsiyasi jarayonida antroponimlarning turli xususiyatlarini aniqlashga asos bo'ladi.

Ingliz tili antroponimlari boshqa tillar antroponimlaridan farq qiladigan bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'kidlashimiz kerakki, ingliz tilida erkak va ayol familiyalari o'rtasida hech qanday farq yo'q. Masalan: *Uilyam Smit – Yelis Smit*. Ingliz tilidagi antroponimlar ham ingliz xalqi va tilining rivojlanish jarayoni bilan bog'liq tarixga ega. Xususan, qadimgi anglo-sakslar tilida antroponimlar tuzilish jihatdan sodda so'zlardan iborat bo'lib, asta-sekin nomlar murakkablashib boradi hamda ularning tuzilishi bir nechta tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Bir nechta shaxslarning bir oilaga mansubligi oila a'zolarining shaxsiy ismlari va ota-onalarining ismlarini birlashtirish orqali ko'rsatilib, qadimgi ingliz ayol ismlari erkak ismlaridan farq qilmaydi.

Antroponimlarning fonetik tabiati har qaysi tilda o'ziga xos bo'lib, bu hodisa tillarning semantik hamda fonetik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Ingliz tili antroponimlari ham ushbu til semantikasi bilan bog'liq bo'lib, matnda antroponimlarni shakllantirish va ulardan foydalanishning alohida qoidalari mavjud. Ushbu tilda familiya qurishning turli usullari mavjud. Masalan, kasb nomlaridan: *kuper – Kuper*; hayvonlar nomlaridan: *bo'ri – Bo'ri*; tegishli ismlardan: *Jon – Jons, Jonson*; rang nomlaridan: *qora – Qora*; tashqi ko'rinishidan: *katta – Katta*; ma'lum bir etnik guruh yoki millatga mansubligiga ko'ra: – *fransuz – Fransuz*.

Ingliz antroponimlari tizimining xarakterli xususiyatlaridan biri antroponimlar tarkibida birdan ortiq ismning mavjud bo'lishidir. Masalan, *Bernard Jorj Xyuston, Gregori Jozef Berd*. Ingliz tilidagi antroponimlar tizimining yana bir o'ziga xos xususiyati familiyalar bilan yoki ularsiz ismlarning kichraytiruvchi shakllari qo'llanilishidir. Masalan, *Toni Bleyer, Bill Klinton (Yentoni Bleyer, Uil Liam Klinton)*.

### XULOSA

Xulosa sifatida ta'kidlash kerakki, o'zbek va ingliz antroponimiyasi materiallari, ismni vujudga keltiruvchi motivlar qiyosiy aspektda yetarlicha o'rganilmagan. Shuningdek, tarixiy antroponimlar turli qadimiy bitiklar sahifasida o'z tadqiqotchisini kutayapti desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bu borada ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilganligiga qaramasdan, ularning nominativ, badiiy-uslubiy, lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish zaruriyatini qayd etish lozim. Antroponim tadqiqi yuzasidan olib boriladigan bunday ilmiy izlanishlar onomastika sohasining rivojida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Komilova M.X. (2023). Ingliz va o'zbek antroponimlarining o'xshash va farqli jihatlarining chog'ishtirma tadqiqi. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. V, pp. 2011-2015. Finland academic research science publishers. doi:10.5281/8003227
2. Komilova M.X. (2023). Ingliz va o'zbek antroponimlarining o'xshash va farqli jihatlarining chog'ishtirma tadqiqi. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. V, pp. 2011-2015. Finland academic research science publishers. doi:10.5281/8003227
3. Komilova M.X. (2023). Ingliz va o'zbek etnik guruh vakillarining farzandga ism berish motivlari. *Pedagogika*, 36-41.
4. Qilichev B. (2023). Onomastika o'quv qo'llanma. В *Onomastika*. Buxoro.
5. Бегматов Э. (2013). In *Ўзбек тили антропонимикаси* (pp. 15-16). Тошкент: Фан.
6. Бегматов Э. (2013). Антропонимлар- антропоцентриқ тадқиқ объекти. *Ўзбек тили ва адабиёти*. Тошкент.
7. Худайбердина М.У. (2012). Автореферат, Пермь.